

“ESSE” metodi

Yozuv malakalarini rivojlantiruvchi interfaol usullar.

Bunday usullar ham inson fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular norasmiy fikr va qiyofalarni qayd qilish, har tomonlama ko‘rib chiqilmaguncha saqlab turish va ularni yanada aniqroq ifodalash imkonini beradi. Bunday usullardan foydalanish yaxshi imkoniyatlar beradi. Yozma nutqni rivojlantirishning quyidagi usullariga to‘xtalamiz:



➤ **Esse** – fransuzcha “essai” so‘zidan olingan bo‘lib, “sinov, analiz, tajriba, dastlabki loyixa” ma’nolarini bildiradi. Esse - shaxsning biror maqsadga mavzuga oid yozma ravishda ifodalangan dastlabki mustaqil erkin fikri. Bunda ta’lim oluvchi o‘zining mavzu bo‘yicha taassurotlarini, g‘oya va qarashlarini erkin tarzda bayon qiladi. Esse yozishda xayolga kelgan dastlabki fikrlarni zudlik bilan qog‘ozga tushurish, iloji boricha ruchka (qalam) ni qog‘ozdan uzmasdan, to‘xtalmasdan yozish. So‘ngra matnni qayta tahlil qilib, takomillashtirish tavsiya etiladi. Mana shundagina yozilgan essening haqqoniy bo‘lishi e’tirof etilgan. Essening muayyan mavzu, tayanch tushuncha yoki erkin mavzuga bag‘ishlab yozish tavsiya etiladi. Esse - ta’lim oluvchilarning darsda eshitgan ma’ruzasi yuzasidan idrok etgan, o‘zlashtirgan tushunchalarini umumiy tarzda qisqa bayon qilib beruvchi xati hisoblanadi.

➤ **Asoslovchi esse** - bu shunday esseki, unda muallif biror mavzu bo‘yichap muayyan nuqtai - nazarga ega bo‘lib, esse mazmunida uni himoya qiladi, buning uchun bir qator asoslovchi dalillar keltiradi. Shundagina asoslovchi esse metodi bajarilgan bo‘ladi. Esse metodi o‘zining bir qator afzalliklari bilan ajralib turadi. Bu metod orqali g‘oyalarni erkin tarzda bayon qilish mumkin.

➤ **Biologik diktant** - fanga oid matndagi gaplarning ayrim so‘zlari, formulasi yoki biror fikr tushurib qoldirilib bayon qilinadi (yoki audio eshittiriladi). O‘quvchilar esa har bir bo‘sh qolgan joyga oid javoblarni o‘zlari topib yozib boradilar.



➤ **Taqriz** - bu o‘qilgan matnni ijobiy yoki salbiy nuqtai - nazardan baholanishidir.

Taqriz yozishda matnni o‘qigan kishining bu haqidagi shaxsiy fikri, bayon qilinishi lozim, matndan ko‘chirib yozish yoki uni qayta ta’riflash qabul qilinmagan.

Namunaviy savol. Yuksak o‘simliklarning gul hosil qilib ko‘payishining ijobiy hamda salbiy jihatlari haqida esse yozing.